

Toshkent shahrida demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyulholatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga Toshkent shahrining doimiy aholisi soni **3 212,2** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **2,1** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **27,4** ming nafarni, vafot etganlar **7,5** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **19,9** ming kishiga teng bo'ldi. Poytaxtimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **1 089** kishini va poytaxtdan xorijga ko'chib ketganlar soni **492** kishini, qayd etilgan nikohlar **9,5** mingtani, nikohdan ajralishlar **3,2** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 212,2	ming kishi
Tug'ilganlar soni	27,4	ming kishi
Vafot etganlar soni	7,5	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	1 089	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	492	kishi
Nikohlar soni	9,5	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	3,2	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Toshkent shahrida doimiy aholi soni 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra **3 212,2** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **67,0** ming kishiga yoki **2,1** foizga ko'paydi. Ayollar soni **1 633,3** ming kishini (**50,8%**), erkaklar esa **1 578,9** ming kishini (**49,2%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	3 145,2	3 212,2	102,1
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	302,6	308,1	101,8
Bektemir	68,5	73,6	107,4
Yunusobod	389,3	396,8	101,9
M Ulug'bek	339,3	345,3	101,8
Mirobod	155,4	157,5	101,4
Shayhontohur	371,6	375,0	100,9
Olmazor	414,8	421,3	101,6
Sergeli	176,0	182,5	103,7
Yakkasaroy	142,4	147,0	103,2
Yashnobod	313,8	322,3	102,7
Yangihayot	194,8	205,2	105,3
Chilonzor	276,7	277,6	100,3

Toshkent shahrida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **7 389,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **154,0** kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **7 235,9** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Toshkent shahrida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **27,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **17,3** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan minus **3,0** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **7,5** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,4** ming nafarga kamaygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Toshkent shahrida tirik tug'ilganlar soni **27,4** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **14,1** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5%**), qiz bolalar soni **13,3** ming kishini (**48,5%**) tashkil etdi.

Toshkent shahrida vafot etganlar soni **7,5** ming kishini, shundan erkaklar **4,0** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **53,3 %**), ayollar **3,5** ming kishini (**46,7 %**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Toshkent shahrida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **9,5** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,0** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.

Nikohdan ajralishlar soni **3,2** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **2,0** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Toshkent shahrida qayd etilgan nikohlar soni **9,5** ming birlikni, 2025-yilning mos davrida qayd etilgan nikohlar soni **9,4** ming birlikni tashkil etdi.

Toshkent shahrida nikohdan ajralishlar soni **3,2** ming birlikni, 2025-yilning mos davrida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **3,0** ming birlikni tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **64 500** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **63 411** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **1089** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **50 355** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **49 863** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **492** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Toshkent shahri	64 500	63 411	1089	50 355	49 863	492
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	6 788	6 741	47	5 152	5 107	45
Bektemir	2 621	2 597	24	1 242	1 220	22
Yunusobod	6 598	6 582	16	5 262	5 190	72
M Ulug'bek	6 358	6 091	267	4 745	4 668	77
Mirobod	3 091	2 941	150	2 643	2 634	9
Shayhontohur	3 963	3 959	4	4 869	4 857	12
Olmazor	4 861	4 755	106	4 700	4 690	10
Sergeli	7 580	7 505	75	4 523	4 452	71
Yakkasaroy	2 607	2 554	53	2 436	2 413	23
Yashnobod	8 715	8 476	239	5 000	4 947	53
Yangihayot	6 374	6 368	6	3 757	3 749	8
Chilonzor	4 944	4 842	102	6 026	5 936	90

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>



Tayyorlash uchun mas'ul: Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi	Ijrochi: 71 203-80-03 (3570)	Manzil: Toshkent sh., Amir Temur shoh ko'chasi, 11 uy
--	--	--
